

SHAXS MA'NAVYI-AHQLOQIY RIVOJLANISHIDA INTELLEKTUAL TARAQQIYOTNING O'RNI

Mirxoliqova Charos Xabibullaevna

**Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti Boshqaruv
mahorati va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish kafedrası mudiri Phd**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16899605>

Ma'lumki, kognitiv yo'nalishda axloqiy ongning taraqqiyoti muammosi, intellektning rivojlantirish va axloqiy e'tiqodning shakllantirishning o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

J. Piage axloqiy ongning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatdi va ularni bolaning bilish qobiliyatlarining bosqichma-bosqich shakllanishi bilan bog'ladi. Intellekt J. Piage tomonidan sub'yekt va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarni shakllantiruvchi xulq-atvorning kognitiv jihati sifatida ko'rib chiqilgan. Intellektual taraqqiyoti, J. Piagening fikricha, ikki tamoyilga muvofiq amalga oshadi: moslashish va tashkil etish. Atrof-muhit talablariga moslashish, o'z navbatida, muvozanatda bo'lishi kerak bo'lgan ikki jarayondan iborat: assimilyasiya (tashqi hodisalarni o'zlashtirish va aqliy hodisalarga yoki fikrlarga aylantirish) va akkomodatsiya (aqliy tuzilmalarni aqliy muhitning yangi jihatlariga moslashtirish). Intellektual rivojlanishning ikkinchi tamoyili - tashkil etish - bu aqlning tuzilishi, murakkablashuvi va integrasiyasidir. J. Piagening fikricha, "bilim harakatidir" (xulq-atvor sxemasi) va rivojlanish natijasida bu sxemalar bosqichma-bosqich interiorizatsiyalanadi. Shunday qilib, nafaqat ob'yektning qayta tiklanishi sodir bo'ladi, balki sub'yektning o'zi ham bilish faoliyati orqali o'zgaradi. Ammo atrof-muhitdan olingan har qanday bilim o'zlashtirilishi mumkin emas, balki faqat sub'yektning ichki aqliy tuzilmalariga mos keladigan bilimlar o'zlashtirilishi mumkin. J. Piage tomonidan ajratilgan predmetli olamga nisbatan bolaning harakat sxemalari u tomonidan insonlarga nisbatan sxemalar bilan to'ldirildi. Ular bolaning axloqiy ongini tashkil etuvchi kognitiv tuzilmalar hisoblanadi [2].

Bola axloqiy ongining bosqichma-bosqich rivojlanishi tahlili J. Piage tomonidan "Bolaning axloqiy mulohazalari" (1932) asarida taklif qilingan. J. Piage bolalarning o'yin qoidalariga munosabatini o'rganib, shuningdek, u ishlab chiqqan klinik suhbat usuli yordamida bola axloqiy ongining rivojlanish bosqichlarini ajratib ko'rsatdi: geteronom axloq bosqichi (majburlash axloqiga rioya qilish) va avtonom axloq bosqichi (hamkorlik axloqi). Axloqiy ongning bunday shakli J. Piage tomonidan bolaning o'z nuqtai nazari va boshqalarning fikrlari aralash bo'lgandagina tafakkurning egosentrizmi bilan izohlangan [2]. Shunday qilib, ushbu bosqichda axloqni tushunish mutlaq, qat'iy xarakterga ega, qoidalar o'zgarmas, jazo muqarrar bo'lib, xatti-harakatning axloqiyligini baholash ta'qiqlangan narsaga muvofiq amalga oshiriladi.

Axloqiy ongning rivojlanishining keyingi bosqichida bolalar qoidalar mutlaq emasligini va ularni umumiy kelishuv asosida o'zgartirish mumkinligini bilib oladilar. Qoidalar endi o'zaro hurmat va kelishuv (hamkorlik etikasi) asosidagi ijtimoiy ijodning alohida turi sifatida qabul qilinadi. Axloqiy qoidalar ixtiyoriy ravishda qabul qilinadi, tafakkurni markazlashtirmaslik qobiliyati paydo bo'ladi va xatti-harakatlarning axloqiyligini baholash boshqa kishining motivlari va istaklarini tushunish asosida amalga oshiriladi, chunki boshqa kishining nuqtai nazariga qo'shilish mumkin bo'ladi.

J. Piage u yoki bu axloqiy mulohazalarning motivlari va sabablarini ham o'rgangan. Uning fikricha, ba'zi hukmlar xatti-harakatning mumkin bo'lgan oqibatlariga asoslanadi (ob'yektiv hukmlar), boshqalari esa niyat yoki motivlarni hisobga oladi (sub'yektiv hukmlar). Axloqiy ong

rivojlanib borgan sari, J.Piajening fikricha, bolalarda operatsional tafakkurning roli ortib boradi. Bu esa ularni ob'yektiv mas'uliyatdan sub'yektiv mas'uliyatga olib keladi va bola motivlar yoki niyatlarni xatti-harakatning oqibatlaridan ko'ra, muhimroq deb hisoblay boshlaydi.

J.Piajening fikricha, ijtimoiy munosabatlarning axloqiy tomonini aniqlash, istalgan va kerakli narsalarni qarama-qarshi qo'yish - bularning barchasi jamiyatdagi munosabatlarning yaxshilanishiga, haqiqiy tenglik va hamkorlikning shakllanishiga olib keladi. J.Piajening fikricha, axloq muayyan ijtimoiy formatsiyada amal qiladigan qoidalar tizimidan iborat bo'lib, axloqning yagona manbai jamiyat tomonidan ma'qullanishi bo'lishi mumkin.

J.Piajening kognitiv nazariyasining asosiy qoidalari boshqa tadqiqotchilarning ishlarida tasdiqlangan, ammo ba'zilar munozaralarga sabab bo'lgan. Shunday qilib, axloqiy ong rivojlanish bosqichlarining yosh chegaralari bo'yicha D.Darkin tadqiqotining natijalari J.Piajening xulosalariga mos kelmadi, chunki o'smirlar oldingi bosqichga mos keladigan javoblarni berishlari mumkin edi (J.Piaje bo'yicha majburlash etikasi) [2]. Mak-Rey axloqiy ong rivojlanishining jamiyatning u yoki bu qatlamiga mansublikka bog'liqligini aniqladi. Shuningdek, u axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishda hissiy jihatning rolini ko'rsatgan. R.S.Jonson (1968) axloqiy hukmlarning shakllanishi ota-onalarning axloqqa nisbatan munosabatlarining yetuklik darajasiga bog'liqligini ko'rdi [3].

L.Kolberg ham J.Piaje nazariyasi qoidalariga asoslanib, axloqiy rivojlanishda kognitiv tuzilmalarning asosiy rolini ta'kidladi. U "axloqning kognitiv-evolyusion nazariyasi"ni ishlab chiqdi va J.Piaje kabi axloqiy rivojlanishning ikki emas, balki uch darajasini ajratib ko'rsatdi. U atrof-muhit va shaxsning o'zaro ta'sirida bu darajalar qanday nisbatda bo'lishini; bir darajadan ikkinchisiga o'tish qanday sodir bo'lishini; kognitiv tuzilmalar va axloqiy his-tuyg'ular, sub'yektning axloqiy xatti-harakatlari o'rtasidagi bog'liqlik qanday amalga oshirilishini aniqlashga harakat qildi. L.Kolberg intellektual rivojlanish darajasi, J.Piaje nazariyasiga ko'ra, axloqiy ongning tegishli darajasini rivojlantirish uchun zarur shartdir, ammo u yetarli bo'lishi mumkin emas, deb hisoblagan. J.Piaje singari L.Kolberg ham axloqning ijtimoiy determinatsiyasini ko'rsatib o'tgan.

Axloqiy hukmlar rivojlanishining asosiy bosqichlari, uning fikricha, madaniy farqlardan qat'i nazar, universal xarakterga ega. J.Piajedan farqli ravishda, L.Kolberg tadqiqotlari o'smirlik davrini ham qamrab olgan. Uning fikricha, axloqiy ongning rivojlanishi insonning butun hayoti davomida sodir bo'ladi va diniy, milliy va maqom farqlariga bog'liq emas. Shuningdek, axloqiy ong asosan tashqaridan emas, balki atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir orqali shakllanadi [3].

Longityud tadqiqot materiallaridan, shuningdek, klinik intervyu usulidan foydalanib, L. Kolberg axloqiy rivojlanish qonuniyatlarini batafsilroq kuzatishga muvaffaq bo'ldi. Natijada u axloqiy hukmlar rivojlanishining uch darajasini ajratib ko'rsatdi, ular o'z navbatida ikki bosqichga bo'linadi, bunda har bir darajaning ikkinchi bosqichi axloqiy rivojlanish yo'lida ko'proq tuzilgan va murakkablashgan bo'ladi. Birinchi daraja L.Kolberg tomonidan konvensiyagacha bo'lgan (domoral) daraja sifatida belgilanadi va ikki bosqichga bo'linadi: "geteronom" axloq bosqichi va individualizm, instrumental maqsad va almashinuv bosqichi. Ushbu daraja 9 yoshgacha bo'lgan bolalarga, shuningdek, g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega o'smirlarga xosdir.

"Geteronom" axloq bosqichida jazoga yo'nalganlik mavjud bo'lib, buning natijasida asosiy motiv jazoga olib keladigan qoidalarni buzishdan qochishdir. Individualizm, instrumental maqsad va ayirboshlash bosqichida qoidalarga rioya qilish faqat shaxsning o'z manfaatlariga mos kelgandagina sodir bo'ladi.

Keyingi daraja - konvensional (an'anaviy, umumiy qabul qilingan me'yorlarga muvofiqlik etikasi) mos ravishda uchinchi va to'rtinchi bosqichlarga bo'linadi: o'zaro shaxslararo kutish va shaxslararo bo'ysunish bosqichi (yaxshi inson etikasi) va ijtimoiy tizim va vijdon bosqichi (hokimiyatni qo'llab-quvvatlash etikasi). Mazkur daraja, L.Kolberg fikricha, aksariyat o'smirlar va kattalar uchun xosdir. Shaxslararo o'zaro kutish va shaxslararo bo'ysunish bosqichida asosiy motiv atrofdagilarning noroziligidan qochish, o'zining va jamiyatning ko'z o'ngida yaxshi inson bo'lish ehtiyoji hisoblanadi. To'rtinchi bosqich - ijtimoiy tizim va vijdon (hokimiyatni qo'llab-quvvatlash etikasi) - inson rozi bo'lgan majburiyatlarni bajarish bilan tavsiflanadi. Asosiy motiv - muassasa hayotini saqlab qolish va tizimni barbod qilmaslik, qonun va jamoat tartibini saqlash, jamiyat manfaatlari haqida qayg'urish.

Uchinchi daraja - postkonvensional (prinsipial, mustaqil ishlab chiqilgan axloqiy tamoyillar etikasi) darajasiga, L.Kolbergning fikricha, faqat 20 yoshdan keyin va shunda ham kam sonli kattalar tomonidan erishiladi. Ushbu daraja shaxsning mustaqil tanlovi, individual axloqiy mas'uliyati va umumiy yetukligi mavjudligini nazarda tutadi. Postkonvensional daraja axloqiy rivojlanishning beshinchi va oltinchi bosqichlariga bo'linadi: ijtimoiy shartnoma yoki foydalilik va individual huquqlar bosqichi (demokratik qabul qilingan qonunlar etikasi) va universal axloqiy tamoyillar bosqichi (individual xulq-atvor tamoyillari etikasi).

Beshinchi bosqich - ijtimoiy shartnomada ko'plab qadriyatlar va fikrlar mavjudligi hamda aksariyat qadriyatlar va qoidalar umuminsoniy qoidalarga mos kelishi tushuniladi. Asosiy motiv - boshqa sub'yekt yoki jamiyatning hurmatini qozonish. Oltinchi bosqichda - universal axloqiy tamoyillarda mustaqil tanlangan tamoyillarga amal qilish amalga oshiriladi [1].

60 yillarning oxirida L.Kolberg o'z nazariyasini pedagogik amaliyotda, xususan, axloqiy tarbiya sohasida qo'llash muammosiga murojaat qildi. Mazkur tadqiqot M.Blatt (M.Blatt, L.Kolberg 1975) bilan hamkorlikda amalga oshirildi. M.Blatt E.Turiel (1966) va D.Restning (1968) maktab o'quvchilariga axloqiy mavzularni o'zidan bir pog'ona yuqorida muhokama qilishni taklif qilish axloqiy rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tishga olib keladi, ya'ni uni tezlashtiradi, degan farazlariga asoslanib, axloqiy hukmlarning rivojlanishi pedagogik ta'sirlarga bo'ysunishini, axloqiy rivojlanishning keyingi bosqichiga tezkor o'tishning sharti kognitiv ziddiyatning mavjudligi, axloqiy bilimlar, axloqiy rollarni o'z zimmasiga olish, shuningdek, axloqiy rivojlanishning dolzarb darajasidan yuqori bo'lgan axloqiy masalalarni muhokama qilish ekanligini isbotladi. M.Blattdan keyin axloqiy mavzulardagi munozaralar tahlili Berkovis va Gibbs tomonidan amalga oshirildi. Ular axloq sohasidagi fikrlar, mulohazalar bilan almashish, boshqalarning fikrini qayta ifodalash orqali bu mulohazalarni o'z xulq-atvorini boshqarishga kiritish sodir bo'lishini aniqladilar. Uolker (1983) turli kognitiv omillarning axloqiy rivojlanishga ta'sirini, jumladan, munozaralarning axloqiy mavzularga ta'sirini o'rgangan. U taklif qilgan ijtimoiy rollardan foydalangan holda o'zaro munosabatlarning turli variantlari axloqiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, uning sur'atini tezlashtirdi [1].

Boshqa tadqiqotchilarning ishlari natijalari bo'yicha ham axloqiy rivojlanishga kognitiv omillar bilan bir qatorda sinaluvchining hissiy ishtiroki, eksperimental vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari, o'tmishdagi axloqiy tajriba, ota-onalarning axloqiy munosabatlari, shaxsning turli xususiyatlari va ijtimoiy sharoitlarning ta'siri haqida xulosa chiqarish mumkin. Xulq-atvorni axloqiy boshqarish nafaqat axloqiy ongning rivojlanish darajasiga, balki axloqiy yechimni talab qiladigan u yoki bu ziddiyatli vaziyatda harakatlarni individual tanlashga ham bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, xorijiy psixologiyada: - uchta asosiy psixologik yo'nalish mavjud bo'lib, ular doirasida shaxs axloqiy ongini shakllantirishning genezisi, mexanizmlari, omillari va vositalarini o'rganish amalga oshiriladi, shuningdek, axloqiy xulq-atvor va axloqiy his-tuyg'ular ko'rib chiqiladi; - psixoanalitik yo'nalishda asosiy e'tibor ichki psixik axloqiy instansiyalarni rivojlantirishga qaratilgan; axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish mayl va burch o'rtasidagi ichki shaxsiy ziddiyatni bartaraf etish va hal qilish orqali amalga oshiriladi; - bixevioristik yo'nalish doirasida axloqiy xulq-atvorning shakllanishi ijtimoiy o'rganish natijasi sifatida modellar, shuningdek, turli xil mustahkamlash orqali ko'rib chiqilgan; - kognitiv yo'nalishda axloqiy ongni rivojlantirish nazariyasi ishlab chiqilgan; - kognitiv tuzilmalar va axloqiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan; - xulq-atvorni axloqiy tartibga solishning axloqiy e'tiqodlarning shakllanganligi, aniq ijtimoiy vaziyatlar, axloqiy mavzularga hissiy munosabat, ota-onalarning axloqiy ko'rsatmalarining yetuklik darajasi, shaxs xususiyatlari va mustaqil axloqiy tanlov qobiliyatiga bog'liqligi aniqlandi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kohlberg L. Moral Stages and Moralization: The Cognitive-Developmental Approach // Moral Development and Behavior: Theory, Research, and Social Issues / Ed. by T. Lickona. – New York etc., 1976. – P. 31–53
2. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. М.: Международная педагогическая академия, 1994. – 680 с.
3. Райс Ф. Психология подросткового и юношеского возраста. СПб.: «Питер», 2000. С. 390-421.